

Sharifa Salimova



Hayvonot olamiga sayohat



Sharifa Salimova

Hayvonot olamiga sayohat



Toshkent
«Akademnashr»
2016

UO'K: 502.74-053.4
KBK: 28.6ya70
S 26

S 26 Salimova, Sharifa.

Hayvonot olamiga sayohat [Matn] / Sh.Salimova. – Toshkent:
Akademnashr, 2016. – 48 b.

ISBN 978-9943-995-47-5

UO'K: 502.74-053.4
KBK: 28.6ya70

Farzandining qordek oppoq, shabnamdek musaffo shuuriga nafis tuyg'ular va yuksak bilimlarni singdirishni niyat qilgan qadrli ota-ona! Taniqli adiba Sharifa Salimovaning mazkur kitobi sizning ana shunday olijanob maqsadlaringizga ko'maklashish istagida dunyoga keldi. Undagi zohiran quvnoq va mazmunan teran she'rlar kichkintoylarga estetik zavq berishi bilan birga ularning tabiat haqidagi tasavvurlarini yanada boyitadi.

ISBN 978-9943-995-47-5

© Sharifa Salimova
«Hayvonot olamiga sayohat»
© «Akademnashr», 2016

TABIATNING OCHIQ QALBI

Singlimiz Sharifaxonning bolalar uchun tayyorlagan hayvonot olami haqidagi chiroyli guldastasini o'zgacha shavq va zavq bilan o'qib chiqdim. Men bolalar adabiyoti dunyosida salkam ellik yildan buyon qalam tebratayotgan ijodkor sifatida shoir va yozuvchilarimizning bir-biridan go'zal asarlar yozganiga guvoh bo'lganman. Lekin adiblarimizning hayvonot va nabotot olami haqida kitoblar yozmaganidan ba'zan ajablanib, ba'zan afsuslanib yashardim. O'tgan yillar davomida rus yozuvchisi Vitaliy Byankinning Yoqubjon Shukurov tomonidan o'girilgan tarjima asarinigina o'qirdik. Ana shunday armonli kunlarda shoira singlimiz Sharifaxonning «Hayvonot olamiga sayohat» nomli qo'lyozmasini o'qib behad quvondim. Bilamiz, odam tabiatning bir bo'lagi, bir parchasi... Inson tabiat bilan bolaligidan «tillashishi» kerak. Bu jarayon qancha barvaqt boshlansa, tabiat, uning hayvonot, nabotot dunyosi bola qalbini shuncha tez ochadi, o'z sirlaridan shuncha tez voqif etadi. Dunyo adabiyotida o'g'il-qizlarga tabiatni tushuntiradigan o'nlab kitoblar borligini ko'rib, ana shunday asarlar bizda ham yaratilmikan deb orzu qilib yurar edim. Shuning

uchun ham qo'lyozmani, takror aytaman, shavq va zavq bilan o'qidim. Unda meni xushnud etadigan holatlarni ko'rdim. Birinchidan, o'ttiz bir jonzotning qiyofasi va o'ziga xos «fe'l-atvori» juda sinchkovlik bilan o'rganilgan. Ikkinchidan, hayvonlardagi fazilat va qusurlarning inson tarbiyasiga ta'siri mohirona aks ettirilgan. Xususan, yirtqich bo'ri yoshligida qo'y-qo'zichoqlarni bo'g'izlagan, kuchdan ketib borayotgan paytida esa endi o'lsam mayli, qabrimdan giyohlar unib chiqsin-u, uni qo'y-qo'zilar yesin deb tavba qilyapti. Kenguru esa bolasidan xavotirlanib, uni xaltasiga solib ko'tarib yuribdi, xuddi onalarimizning o'ziga o'xshab. Yersichqon tun-u kun yer tagini shudgor qilib, bolasiga ovqat axtaradi. Yoki endigina tug'ilgan mushuk bolasi mayingina miyovlab, ulkan Olapardan qo'rqib, daraxt ustida o'tiribdi. Ayni paytda, u onasining yordamiga muhtoj. Yoki ona filning beparvoligi, bolasining o'zboshimchaligi tufayli filcha chohga tushib ketgan.

Mana shunday o'ttiz bir hayvonning fe'li, atvorini tasvirlash orqali Sharifaxon tarbiya uchun muhim bo'lgan asarni yaratadi. Uchinchidan, asarning yanada o'qishli bo'lishini ta'minlaydigan holat she'r tariqasida yozilganidir. To'rtinchidan, har bir hayvonga bag'ishlangan she'rlar go'yat ixcham, rang-barang qofiyalar bilan ziyoratlanganki, bu she'rlar tabiatiga quvnoqlik bag'ishlaydi.

Sharifaxon barcha o'g'il-qizlarimizni hayvonot va nabotot olamiga borishga, uni chuqurroq o'rganishga samimiyat bilan chorlayapti. Ana shunday kitoblar yoshlarni tabiatni sevishtga, o'rganishga da'vat etadi. Ba'zan shahar bolalari ho'kiz bilan sigirning farqiga bormaydi, sovliq bilan qo'chqorni ajrata olmay, qo'y deb qo'ya qoladi. Bahorda keladigan laylaklar o'zlarining oltin qanotlarida ko'klam nafasini olib kelishlarini tasav-

vur qilolmaydilar. Yoki pingvinlar Shimoliy muz okeanida yashaydimi yoki Afrikaning jazirasida tug'ildimi, ko'z oldiga keltirolmaydi. Ana shunday holatlarning oldini olish uchun tabiatni o'rganishni va o'rgatishni juda erta boshlashimiz lozim.

Sharifaxon, siz million-million bolajonlarimizga «Yaqinroq kelinglar, birgalashib tabiatni o'rganamiz» degan olijanob niyatni qilgansiz. Shu ma'noda alifbo tartibida yozilgan ushbu kitobchangizni bog'cha yoshidagi minglab bolajonlarimiz, qanchadan qancha o'quvchi yoshlarimiz ko'pdan buyon kutishyotgandi. Yana bir istagim, ushbu kitob bahona bunday harakatlar maktablarda va boshqa tarbiya o'choqlarida ham boshlanib ketsa ajabmas.

Sharifaxon qizim, boshlagan xayrli, savobli ishingizning ajrini Alloh bersin.

*Xudoyberdi TO'XTABOYEV,
O'zbekiston xalq yozuvchisi*

KICKINTOYLAR OLDIDAGI QARZIM

Beg'ubor bolaligimdagi ajib bir xotira doimo men bilan birga ergashib yuradi: qishloqning qoq o'rtasidan guldirab o'tadigan Parkentsoyning o'ng qirg'og'ida tumonat odam yig'ilgan. «Dorbozlar kelibdi, dorbozlar...» degan ovoza ularni shu yerga boshlagan. Ular orasida bola-baqra, xotin-xalaj, oq ro'mol o'ragan momolar, soqoli ko'ksiga tushgan xizrsifat otaxonlar ham bor.

Karnay-surnay sadosi ko'kni tutadi, davrada ayiq yetaklab aylanayotgan amaki yosh-u qariga o'yin ko'rsatadi. «Qani, polvon, o'mbaloq oshing-chi, qani, polvon, beshik tebrating-chi, qani, polvon, xamir qoring-chi» degan buyruqlar beradi. Junlari qora baxmalday yarqiroq «polvon» ixlos bilan egasining amrini bajaradi, so'ngra soyning guldurashiga qo'shilib ketayotgan olqishlar asnosida qo'lini ko'ksiga qo'yib, tomoshabinlarga ta'zim qiladi va egasi tutgan oq qandni kursillatib yeb oladi.

Men esa ayiqdan sira ko'z uzolmayman. Uning mamnun qop-qora ko'zlarini, baxmaldek po'stinini silagim, eng yaxshi so'zlarimni aytgim keladi. U menga juda sirli, juda qudratli, juda mehribondek tuyulardi. Bu orada amakiga iltimoslar yog'iladi: «Aylanib ketay, inim, o'g'limni polvonning ustiga bir o'tqazing, polvon bo'lsin!» Parkentning qorako'z bolajonlari ayiqning ustiga bir-bir maza qilib minib olishadi. Tomosha esa davom etadi...

Aziz o'quvchim!

Ushbu she'riy kitobchamni bolaligim va sevimli nabilarim – Gulinur, Mohinur, Nafisaxon, Shohjahon, jajji Mehribonu va siz aziz, bolajonlar, oldidagi qarzlarni uzish yo'lidagi dastlabki qadamim deb bilsangiz, g'oyat baxtiyor bo'lardim.

Muallif

KITOBCHANING YOZILISH TARIXIDAN

O'tirgandim. Asal yalab
Ayi qeldi.
Belin ushlab Bo'ri bilan
Baliq keldi.
Delfinchalar dum o'ynatib
Keldi kulib.
Echkioy ham xonish qildi
Sochin yulib.
Xartumida Filboy turar
Sovg'a ushlab.
Gorilla-chi, futbol to'pin
Turar tishlab.
Hakka tinmay shaqillaydi,
Kutib mehmon.
Vish-vish ila qovoq uyib
Keldi Ilon.
Par bolishni Jirafaxon
Ko'radi tush.
Dengiz osha uchib keldi
Kabutar qush.
Laylak kelar olam uzra
Kumush sochib.
Olaparni ko'rib ketdi
Mushuk qochib.
Ninachivoy uchib keldi
Suvga chanqoq.
Olmaxonning cho'ntagida
Kumush yong'oq.
Pingvin yo'lda adashibdi,
Uzoq emish.



Quyoning bari shalpanquloq emish.
Rayhon atir sochdi do'stlar
Yo'llariga.

8

Gullar tutib Sichqonchani
Qo'llariga.

Tulki bilan Tipratikan
Keldi inoq.

Tovusoyning so'zlariga
Tutib quloq.

Go'daklarga Ukki parin
Olib keldi.

Vahmaqush naq tun cho'kkanda
Horib keldi.



Xo'tik birdan hangragancha
Qoldi qochib.
O'rmon xoni – Yo'lbars turgach
Vahshat sochib.
Zebra keldi po'stinini
Ko'z-ko'z qilib.
O'rdak keldi lapang-lapang
Qilib yurib.
G'oz g'oqillab ko'l tomonga
Yuzin burdi.
Janobi Sher viqor ila
Qarab turdi.
Bir chekkada Chayon sukut
Saqlab turar.
Qanday qilib nish ursam, deb
Xayol surar.
Hamma hayvon jam bo'lishgach:
– Do'stlar, – dedim.
– Sizlarni men ko'rmoqqa xo'p
Mushtoq edim.
Xush kelibsiz, ko'ngilda ne,
Ayting borin.
Biz qutlaylik, bunday diydor
Sababkorin.
Ular dedi bir ovozdan
Shod-u xurram.
– Kitob qiling, bizlarni ham,
Bizlarni ham...





Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/oz/asar/3778> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/3778> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию
можно найти на сайте
<https://kitobxon.com/ru/asar/3778>